

O‘SIMLIKLARNING CHO‘L MUHITIGA MOSLASHISHI*Sayfulloyeva Sabina**Navoiy innovatsiyalar universiteti**Biologiya ta’lim yo’nalishi**2- Kurs talabasi.*

Annotatsiya. O‘lkamiz ajoyibotlarga to‘la. Ona tabiatimizda uchraydigan har bir zarraning o‘z vazifasi va xususiyatlari mavjuddir. Har bir narsa goh zarra bo‘lsin, goh o‘simlik yoki umuman tirik jon bo‘lsin. Bularning barchasi bir-biriga chambarchas bog‘langan holda hayot kechiradi.

Kalit so‘zlar: cho‘l, o‘simlik, kaktus, tola, to‘qima, koloniya, baobob, gul, muhit, namlik, daraxt, suv, ildiz.

KIRISH

Salomatligimiz uchun o‘simliklar dunyosining ahamiyati katta. Bir gektar o‘rmon o‘rtacha 200 ming aholi yashaydigan shahar havosini tozalab turish imkoniyatiga ega. Xuddi shuncha maydondagi keng bargli o‘rmonlar 5 kilogramm, ninabargli o‘rmonlar esa 8 kilogramgacha shifobaxsh moddalar ajratib, bakteriyalarni zararsizlantiradi. Shularni hisobga oladigan bo‘lsak, o‘rmonlarni asrash va yashil maydonlarni kengaytirish davrimizning eng dolzarb ekologik masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, daraxtlarning kesilishi natijasida kelib chiqadigan umumbashariy zararni qoplash uchun har yili 150 million gektar yerga ko‘chat ekishimiz kerak ekan. Agar bir yilda 100 million tup ko‘chat eksak, atmosferaga karbonat angidrid gazi chiqarilishini 18 ming tonnaga qisqartirgan bo‘lamiz. Shu orqali biologik xilma-xillik saqlab qolinishi barobarida suv toshqinlari, qurg‘oqchilik, tuproq eroziyasining ham oldi olinadi.

Hozirgi kunda yurtimizda 75 turdan ortiq daraxt va buta turlari o‘sadi. Bundan tashqari, povlovniya, klon terak navlari, magnoliya, pekan, pirakanta kabi o‘ndan ortiq cho‘l-yaylov o‘simliklari iqlimimizga moslashtirilib o‘stirilmoqda.

Joriy yilda o‘rmon xo‘jaliklari tomonidan 85,2 million dona daraxt va buta nihollari hamda ko‘chatlari yetishtirildi. Ko‘kalamzorlashtirish maqsadida 15 million dona tut ko‘chatlari parvarishlanmoqda. Shuningdek, o‘rmon xo‘jaliklari tomonidan 20 million dona tez o‘sovchi daraxtlar qalamchalari tayyorlandi. I

Jazirama va cheksiz, garimselli va qaynoq quyosh ostidagi - O‘zbekiston cho‘llari. Ular mamlakat hududining yarmidan ko‘prog‘ini egallaydi va Markaziy Osiyoda og‘ir yashash sharoitidagi hududlar sanaladi. Cho‘llar respublikaning shimoli-g‘arbidan cho‘zilib, sharqqa tomon asta-sekin qisqarib boradi. Ba’zi hududlarda go‘zal

vodiylar va vohalar mavjud. Bunday joylarda muhim strategik obyektlarga aylangan tarixiy shaharlar paydo bo‘ldi.

Bebaho mo‘jiza, hayot va tabiat muvozanatini saqlab, insoniyatga ming yillardan beri xizmat qilib kelayotgan o‘rmonlarni asrab-avaylash, shahar va qishloqlarda mevali va manzarali daraxtlarni ko‘paytirib, ulardan oqilona foydalanish har birimizning insoniy burchimiz ekanini unutmasligimiz kerak. Ammo sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga hayrixoxlik qilish o‘rniga daraxtlarni noqonuniy tarzda kesish holatlari ham uchrab turgani achinarli holat. Biz tabiatga qanday munosabatda bo‘lsak, u ham bizga shunga munosib javob qaytaradi.

Sohada ilmiy tadqiqot loyihalarini kuchaytirish o‘simlik va hayvonot olamini qayta tiklash, tabiiy resurslarni saqlash, hududdagi aholi hayot sifatini va yashash tarzini yaxshilash, kelajak avlodga tabiatni shu holda yetkazish imkonini beradi.

— 2018–2021-yillarda 14 ta ilmiy loyiha bajarilgan bo‘lib, shundan 11 ta innovatsion ishlanmalar amaliyotga joriy etildi, — deydi O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti direktori Abdushukur Hamzayev. — Buning natijasida 76 turdagi dunyo seleksiyasiga ta’luqli yog‘ochbob, tez o‘sovchi duragay terak, povlovniyaning ikkita “shang-tong” va “tomentoza” navlari “in-vitro” laboratoriyalarida ko‘paytirildi. Qolaversa, xandon pistoning 13 ta yangi navi yaratilib, Navoiy viloyati o‘rmon xo‘jaliklarida 900 gektar maydonga, Jizzax viloyatida 1000, Andijon viloyatida 2000, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida 1000 gektar maydonda pista palantatsiyalari barpo etildi. 15 dan ortiq turdagi yangi dorivor o‘simliklar, xususan, zafaron, sistaxe, damashq atirguli, godji, guava, exinatsiya kabi o‘simliklarni ochiq joylarda va issiqxonada ko‘paytirish hamda turli iqlim sharoitlarida plantatsiyalar barpo etishning innovatsion agrotexnologiyalari ishlab chiqildi.

Cho‘l (tekislik)dagi o‘simliklar hayoti, asosan qum va gipsli tuproqlar hamda sho‘rxok bilan bog‘liq. Qumli cho‘lga Qizilqum, Qashqadaryoning quruq o‘zani (Sandiqliqum), Surxandaryoning quyi qismidagi Kattaqum va Xorazm voxasidagi qumli massivlar kiradi. Aksariyat qumliklar o‘simliklar bilan mustahkamlangan. Qum uyumlarida daraxt yoki yirik butalardan oq saksovul, juzg‘un (qandim), cherkez; butalardan oq boyalich, quyon suyak, qizilcha, gilos daraxt kabi o‘simliklar o‘sadi.

Sho‘rxok tuproqlar tarkibidagi tuzlar miqdoriga qarab o‘simliklar turlicha bo‘ladi. Nam, qatqaloqli va mayin sho‘rxokli tuproqlar o‘simlik rivojlanishi uchun juda noqulay. Lekin, shunga qaramay, ayrim joylarda sarisazan, qizilsho‘ra, qorabaroq, shohilak, oqboqosh, buzoqboqosh, donasho‘r, sho‘ra, ajriq kabi o‘simliklar uchrab turadi. Umuman, bunday sharoitda o‘sadigan turlar soni 100 dan ortiq. Sho‘rxoklarda keng tarqalgan o‘simliklarga saksovul (ikkala turi ham) kabi sho‘radoshlar oilasining juda ko‘p vakillari (baliqko‘z, quyonjun, qora sho‘ra) kiradi. Ular cho‘lning og‘ir (issiq va quruq) sharoitda o‘shishga turlicha shaklda moslashgan, ya’ni ayrimlarning bargi,

poyasi seret bo'lsa, boshqalarining bargi tikanga aylangan yoki umuman yaprog'i shakllanmagan.

Bir vaqtlar sayos suvlar ostida bo'lgan joylar — taqirlarda o'simliklar juda kamdan-kam uchraydi. Ba'zi hollardagina taqir yoriqlaridan chiqib turgan ayrim efemerlar va donni sho'r kabi o'simliklarni ko'rish mumkin. Bunday taqirlar Qizilqum cho'llarda bor.

To'qaylar daryo (ayniqsa, Amudaryo va Sirdaryo) qirg'oqlari bo'ylab turlicha kenglik hamda uzunlikda joylashgan. To'qaylarda, asosan, daraxt, buta va ko'p yillik o'tlar keng tarqalgan. Daraxtlardan turong'il (teraklar turkumidan), kaptarjiyda, tol turkumining bir qancha vakillari; butalardan yulg'un; ko'p yillik o'tlardan shirin miyya, yantoqning ayrim turlari, qamish, erkakqamish, famatsiya kabilar o'sadi.

Bir yillik o'simliklar (efemerlar) kuzda havo iliq va sernam bo'lgan paytlarda rivojlanib, qishda ob-havoga qarab turli darajada o'sishda davom etadi. Janubiy viloyatlarda rivojlanish ancha jadal kechadi. Mart-Aprel oylaridayoq efemerlar nisbatan qisqa vaqt ichida gullab, meva tugashga ulguradi. Efemeroidlar (ko'p yillik o'tlar) ham efemerlarga o'xshab havoga mos ravishda kuzda, qishda va bahorda o'sib rivojlanadi. Lekin piyozli va ildiz poyali efemeroidlar hayotiy jarayonlar kuz va qish fasllarida yer ostida davom etadi. Masalan, lolaning g'unchalari tuproq ostidayoq shakllanadi.

Qo'ng'irbosh va iloq turkumiga mansub qator turlar eng keng tarqalgan efemeroidlardir. Bulardan tashqari yana isriq, shuvoqlarning ayrim turlari va kovrakni uchratish mumkin.¹

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yildan yilga global iqlim o'zgarishi, anomal issiqliklarga o'rganib boryapmiz. Bularga insoniyatning ba'zan bilib, ba'zan bilmay ekotizm barqarorligiga putur yetkazishi ham sabab bo'lmoqda. Demakki, tabiatni asrab-avaylash doimiy qoidaga aylanmog'i shart.

Kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatni chuqur anglagan holda mamlakatimizda shaharlarni yashil va obod maskanga aylantirish bo'yicha ezgu tashabbuslarni amalga oshirishda davlat boshqaruv organlari bilan birgalikda biz ham o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. Soha faqatgina mutasaddi tashkilotlar, olimlarning e'tiborini talab qilmaydi. Ekotizm muvozanatini saqlashda chekka qishloq yoki katta megopolislarda istiqomat qilayotgan har bir insonning munosabati va sa'y-harakati ham muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

¹ Baratjon ogli, S. F. (2023). Dala choy osimligining morfologiyasi, kimyoviy tarkibi va tibbiyotda qollanilishi. scientific aspects and trends in the field of scientific research, 1(7), 98-101.

1. Lauren Cocking (2017). Meksikaning aql bovar qilmaydigan daraxtlari, o'simliklari va gullari.
2. O'simliklar geografiyasi. Termiz 2008-yil Baratjon ogli, S. F. (2023). qalampir yalpiz osimligining morfologiyasi, kimyoviy tarkibi va tibbiyotda qollanilishi. *pedagog*, 6(2), 642-646.
3. Baratjon ogli, S. F. (2023). Dala choy osimligining morfologiyasi, kimyoviy tarkibi va tibbiyotda qollanilishi. *scientific aspects and trends in the field of scientific research*, 1(7), 98-101.
4. Yusupova, Z. A., Baratjon ogli, S. F., & Abduqunduzovna, M. Z. (2023). Medicinal Plants Growing in Our Republic Medicinal Properties. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 15, 5-7.
5. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2022). natural medicinal herbs of the lamiaseae family and their medical properties. *journal of innovations in scientific and educational research*, 2(13), 64-68. 2